

IFRS” HOMLI
KONFERENCIYA

CONFERENCE “GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC

TRENDS”

2nd FORUM OF
DEVELOPMENT
STRATEGY:
GLOBAL AND
NATIONAL
ECONOMIC
TRENDS



TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS

ЙУНАЛИШ: ГЛОБАЛ
ИҚТИСОДИЁТНИ
РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ
ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА
ИСТИҚБОЛЛИ ЙУНАЛИШЛАРИ
“Глобал ва миллий
иқтисодий трендлари”

ERENCE

19-20
OCTOBER

ФОРУМ

PARALLEL CONFERENCES

“NEW2AN, ICFNDS
AND ICDSIS”

2nd FORUM OF
DEVELOPMENT
STRATEGY:
GLOBAL AND
NATIONAL
ECONOMIC
TRENDS

NEW2AN, ICFNDS AND ICDSIS”

CONFERENCE
“IFRS”

E
ECONOMIC
IDS”

2nd FORUM OF
DEVELOPMENT
STRATEGY:
GLOBAL AND
NATIONAL

“IFRS”

HOMLI
KONFERENCIYA

МЛМ
ИЛМ

2nd FORUM
DEVELOPMENT
STRATEGY:

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

2023

ILMIY ELEKTRON JURNAL MAXSUS SON

innovation
education

ФОРУМ

19-20 OCTOBER

PARALLEL CONFERENCES

“NEW2AN, ICFNDS

AND ICDSIS”

РАҚАМЛИ ИҚТИСО
АХБОРОТ ТЕХНОЛ
ВА ТАЪЛИМНИНГ
ИСТИҚБОЛЛИ ЙУН
“NEW2AN, ICFNDS,
номли параллель
конференциялар

- Macroeconomic Stability
- Social Welfare
- Human Capital
- Decent Employment
- World Economy
- Gender Equality
- Industry 4.0
- Sustainable Agriculture



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

<https://laboreconomics.uz>



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI 2023-yil Maxsus son

ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

laboreconomics.uz

“**Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali**” ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro‘yxatga olingan.
Muassis: “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

Tahririyat manzili:
100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49-uy.

Elektron manzil: ilmiymaktab@gmail.com

Jurnal web-sayti: www.laboreconomics.uz

Bog‘lanish uchun telefonlar:

+998 (99) 881-86-98.

TOSHKENT-2023

EDITORIAL BOARD | TAHRIRIYAT KENGASHI

Tahririyat Kengashi raisi: (Chairman of the Editorial Board)

Abdurahmanov Qalandar Xodjayeovich, O‘zFA akademigi

Tahririyat Kengashi a‘zolari: (Members of the Editorial Board)

Toshqulov Abduqodir Hamidovich,
i.f.d., prof.

Yusupov Axmadbek Tadjiyevich,
i.f.d., prof.

Sharipov Kongratboy Avezimbetovich,
t.f.d., prof

Raifkov Kudratilla Mirsagatovich,
i.f.d., prof

Xalmuradov Rustam Ibragimovich,
i.f.d., prof

Umurzakov Baxodir Xamidovich,
i.f.d., prof.

Nazarov Sharofiddin Xakimovich,
i.f.d., prof.

Jumayev Nodir Xasiyatovich,
i.f.d, prof.

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,
i.f.d., prof.

Eshov Mansur Po‘latovich,
i.f.d., prof.

Zokirova Nodira Kalandarovna,
i.f.d.. prof.

Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich,
i.f.d., prof.

Muxiddinov Erkin Madorbekovich,
i.f.f.d., (PhD)

Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayev,
i.f.n., dots.

Amirov Lochinbek Fayzullayevich,
i.f.f.d., (PhD), dots.

G‘oyipnazarov Sanjar Baxodirovich,
i.f.f.d., (PhD), dots.

Shakarov Zafar Gafarovich,
i.f.f.d., (PhD)

Jamoatchilik Kengashi a‘zolari:
(Community Council members)

Bred Bodenxauzen (AQSh)

Jon Ankor (Buyuk Britaniya)

Odegov Yuriy Gennadevich
(Rossiya Federasiyasi)

Keynz Miller (AQSh)

Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)

Masato Xivatari (Yaponiya)

Gerxard Feldmayer (Germaniya)

Eko Shri Margianti (Indoneziya)

Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)

Rohana Ngah (Malayziya)

Sharifah Zanniyerah (Malayziya)

Teguh Dartanto (Indoneziya)

Nur Azlinna (Saudiya Arabistoni)

Muhammed Xoliq (Pokiston)

Alisher Dedaxonov (Toshkent)



Mas‘ul muxarrir (Editor-in-Chief):

G‘oyipnazarov Sanjar Baxodirovich

Veb-administrator (Web admin):

Musayev Xurshid Sharifjonovich



MUNDARIJA (CONTENTS)

MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI

Q.X. Abdurahmonov S.B. G'oyipnazarov	Сунъий интеллектни жорий этиш натижасида меҳнат бозоридаги ўзгаришлар	6–12
R.I. Nurimbetov A.M. Ismailov	O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlari rivojlanishi va aholi bandligini manfaatdorlik indeksi asosida baholash	13–21
N.T. Shayusupova S.S. Amirdjanova	Прогнозирование макроэкономических показателей роста экономики и занятости населения республики	22–29
I.A. Bakiyeva	Тошкент вилоятида ишсизларни замонавий касб-ҳунарга ўқитишни самарали ташкил этиш йўллари	30–34
S.I. Sotnikova	Наемный труд: институциональные эффекты неравновесной экономики .	35–41
A.S. Usmanov M.A. Bahridinova	Qashqadaryo viloyatida bandlikning tarmoq tuzilishidagi o'zgarishlar va uning aholi turmush farovonligiga ta'siri	42–48
X.F. To'xtayeva	Туристик хизматлар бозорида бандликни тартибга солиш ва бошқариш бўйича илғор хорижий тажрибалар	49–56
B.Z. Ganiyev	O'zbekiston hududlarida bandlikning iqtisodiy o'sishga nisbatan elastikligi tahlili	57–61

INSON RESURSLARINI BOSHQARISH

S. Sotnikova N. Sotnikov	Ecology of the employee's career based on the concept of time management .	62–70
A.N. Turayev B.B. Suvonov	Направления развития анализа затрат труда в хозяйствующих субъектах	71–76
B.B.Suvonov	Зарубежный опыт анализа показателей затрат труда в хозяйствующих субъектах	77–82
Z.M. Xasanova	Enhancing economic education and human resources management: a study of innovative approaches in Uzbekistan's higher education institutions	83–91
R.R. Oqnullayev	Инсон ресурсларини бошқариш — олий таълим муассасаларининг глобал рақобатбардошликка эришиш омили	92–102
B.B. Mardonov	Xizmat ko'rsatish sohasida kadrlar salohiyatini baholash	103–108
M.Sh. Xaydarova	Использование искусственного интеллекта в управлении человеческими ресурсами	109–123

INSON KAPITALI

A. Zikriyoyev D. Khojamqulov M. Raimjanova N. Turayev A. Abdullayev	Human capital development in the context of health and safety regulation: policy analysis in construction industry	124–138
A. Zikriyoyev M. Farmonova Ch. Keldiyorova D. Nekboyev O. Murodova	Orientation / induction day as a remedy for human capital investment at higher education	139–150
A.S. Boltayev Y.M. Otaboyev	The impact of health and education expenditure on economic growth in case of Uzbekistan	151–163
O.A. Eshbayev	Strategic integration of emerging technologies in engineering education: a holistic approach to cultivate human capital for the digital economy	164–169

A.O. Jumanov R.A. Omirzakov	Innovative environmental education in higher education: fostering sustainable mindsets for a greener future	170–175
I.Sh. Khadjiyeva	School climate quality and education quality: evidence from 15 worst performing nations at PISA 2018	176–187
M.O. Kurolov	Leveraging digital healthcare marketing strategies to enhance social welfare through human capital development	188–192
M. Numanova F. Khakimov	Priorities for the development of national human capital in the economy	193–198
M.X. Xo‘jayeva	Properties of innovative activity in the education system of Uzbekistan	198–203
H.T. Yaxshiyev	Mehmonxona hamda restorani biznesi faoliyati tushunchasi va mohiyati	204–206
X.B. Nasriddinov	O‘quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirishda ta‘lim metodlaridan foydalanish	207–210
Sh.Y. Sharobiddinov	Investing in human capital: a comparative analysis of democratic and authoritarian regimes	211–220
Z.M. Xasanova	Comparative analysis of innovative education management strategies for economic education and green development: lessons from foreign countries	221–228
S.R. Xolbayeva	Трансформация системы подготовки кадров в целях повышения эффективности функционирования человеческого капитала в экономической системе	229–238
INSON TARAQQIYOTI		
Sh.U. Jo‘rayeva	Socio-economic significance and analysis of the standard of living of the population	239–244
N.M. Khazratkulova	The impact of inter-budgetary relations on regional growth and the standard of living of the population of the regions (on the example of the republic of Uzbekistan)	245–250
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARITRISH		
G.Q. Abduraxmonova M.X. Fayziyeva Sh.Q. Xoliyorova	O‘zbekiston davlat ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlashda raqamli rivojlanishning o‘rni	251–261
GENDER TENGLIK		
G.Q. Abruraxmonova N.U. Khalimjonov	Gender inequality in labour market	262–268
MUNOSIB MEHNAT		
Sh.X. Raxmatullayeva	Milliy korxonalarda mehnat samaradorligining muhim ko‘rsatkichlarini baholash tizimini imkoniyatlari	269–275
Z.U. Usmonov	Ko‘zi ojiz shaxslarni ish bilan ta‘minlashning obyektiv zarurligi	276–283
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH		
L.F. Amirov	Современные тенденции развития аграрного сектора Республики Узбекистан	284–293
I. Khotamov A. Kasimov Y. Najmiddinov G. Yuldashev	The current importance of alternative energy and renewable energy in Uzbekistan	294–317
Z.T. Abdurakhmanova	Factors affecting sustainable agriculture and food production in Uzbekistan	318–328
J.X. Ishanov	Determination of hydraulically acceptable length of drip irrigation pipe	329–334

U.Sh. Duskobilov	Influence of monetary policy instruments on macroeconomic stability during the transition to inflation targeting in Uzbekistan	335–342
Sh.D. Ergashkhodjayeva E.Y. Khojiyev	The EU’s generalised system of preferences: impact on foreign trade of domestic products	343–348
O.A. Eshbayev	Exploring synergies: redefining engineering education management for industry 4.0 in the digital economy era	349–354
H.B. Haydarov	O‘zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda xorijiy investitsiyalarning tutgan o‘rni	355–361
M.R. Khidirova	Improving the efficiency of corporate governance based on the modeling of agricultural machinery enterprises	362–369
B.N. Ishniyazov	Analysis of the activities of innovation of the agricultural sector of our country	370–374
N.N. Ismoilov	Implementing SDGS (sustainable development goals) in small business entities	375–380
N.S. Karimova	O‘zbekistonda klasterlar faoliyatini tashkil etish mexanizmi	381–385
M.R. Khayitova	The essence of green loans in a global unstable environment	386–391
S.B. Maxmudov	Milliy iqtisodiyotda eksport amaliyotiga ta’sir etuvchi omillarni ekonometrik tahlilini baholash	392–401
Y.F. Najmiddinov	Initial efforts to develop green energy and green growth in Uzbekistan	402–407
Ch.G. Nosirova	Developing sustainable pathways for textile product exports: a green strategy approach to enhance social welfare	408–415
N. Khalimjonov P. Allayarov	The gravity trade model for Uzbekistan	416–424
D. Usmonova	Evaluating the role of marketing strategies in fostering the growth of viticulture enterprises for achieving sustainable agricultural development	425–431
МАКРОИҚТИСОДИЙОТ		
A. Valiyeva	Assessing the impact of sustainable agricultural practices on legume market dynamics: a comprehensive marketing research analysis	432–440
V.K. Yarashova	The mutual influence of transport on macroeconomic indicators in Uzbekistan	441–447
M.S. Yusupov G.T. Ismoilova	Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish zanjirida agrosanoat klasterlarining ahamiyati va rivojlantirish imkoniyatlari	448–459
M.T. Abdurahmanova M.M. Ismailova	Қишлоқ хўжалигида ер ресурсларидан самарали фойдаланишнинг хориж тажрибасини такомиллаштириш	460–465
N.B. Achilova	Сущность и значение национального брендинга стран в условиях глобализации	466–474
J.N. Bayisbayev	Мамлакатимизнинг тадбиркорлик субъектларини ижтимоий фаолиятини қўллаб-қувватлашдаги иштироки	475–481
A. Valiyeva	Оценка роли устойчивых методов ведения сельского хозяйства в повышении конкурентоспособности рынков бобовых: глобальный маркетинговый анализ	482–490
F.R. Bobobekov	Мақроқиқтисодий барқарорлик шароитида факторингга таъсир этувчи омиллар	491–497
D.B. Xajiyev	Даромадларни қайта тақсимлаш жараёнларини тартибга солишнинг фискал воситалари	498–504



O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI TARMOQLARI RIVOJLANISHI VA AHOLI BANDLIGINI MANFAATDORLIK INDEKSI ASOSIDA BAHOLASH

Nurimbetov Ravshan Ibragimovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori, i.f.d.

Ismailov Akmal Maxsudovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori v.b., i.f.d.

Annotatsiya. Ushbu maqolada inson faoliyatida manfaat ustunligi nazariy jihatdan yoritilgan. Insonning mehnat faoliyatida manfaat ustunligi iqtisodiy qonuning amal qilishi nazariy va uslubiy jihatdan asoslangan hamda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi, aholining iqtisodiy faolligi va aholining ish bilan bandligi ko'rsatkichlari manfaatdorlik indeksi asosida tahliliy o'rganilgan. Shuningdek, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida mehnat resurslari va aholining ish bilan bandligini oshirish bo'yicha ilmiy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar. manfaat, manfaat ustunligi, manfaatdorlik indeksi, iqtisodiyot tarmoqlari, aholining iqtisodiy faolligi, aholining ish bilan bandligi, mehnat resurslari.

ОЦЕНКА РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТРАСЛЕЙ УЗБЕКИСТАНА И ЗАНЯТОСТИ НАСЕЛЕНИЯ НА ОСНОВЕ ИНДЕКСА ИНТЕРЕСА

Нуриббетов Равшан Ибрагимович

Профессор Ташкентского государственного экономического университета, д.э.н.

Исмаилов Акмал Махсудович

В.и.о., профессора Ташкентского государственного экономического университета, д.э.н.

Аннотация. В данной статье теоретически обосновано главенство интереса в деятельности человека. Теоретически и методологически обосновано применение экономического закона главенства интереса в трудовой деятельности человека и на основе индекса интереса аналитически рассмотрены развитие экономических отраслей в Республике Узбекистан, показатели экономической активности и занятости населения. Также разработаны научные предложения и рекомендации по увеличению занятости населения и трудовых ресурсов в экономическом развитии страны.

Ключевые слова. интерес, доминирование интереса, индекс интереса, экономические отрасли, экономическая активность населения, занятость населения, трудовые ресурсы.

ASSESSMENT OF THE DEVELOPMENT OF ECONOMIC INDUSTRIES OF UZBEKISTAN AND EMPLOYMENT BASED ON THE INTEREST INDEX

Нуриббетов Равшан Ибрагимович

Professor of Tashkent State University of Economics, DSc.

Ismailov Akmal Maksudovich

Professor of Tashkent State University of Economics, DSc.

Abstract. This article theoretically substantiates the primacy of interest in human activity. The application of the economic law of the primacy of interest in human labor activity is theoretically and methodologically substantiated and, based on the interest index, the development of economic sectors in the Republic of Uzbekistan, indicators of economic activity and employment of the population are analyzed analytically. Scientific proposals and recommendations have also been developed to increase employment and labor resources in the economic development of the country.

Keywords. interest, dominance of interest, index of interest, economic sectors, economic activity of the population, employment of the population, labor resources.





Kirish:

Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy rivojlanish barcha mamlakatlarning demografik jarayonlariga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmaydi. Shu bilan birga aholining ish bilan bandlik darajasini oshirishda demografik jihatlar muhim omil bo'lib hisoblanadi. Bugungi aholi tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan sharoitda, mamlakatimizda ham ushbu muammoning ilmiy asoslarini tadqiq etish davr talabi bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri bo'lgan, demografik jarayonlarni tartibga solish hamda uning aholi bandligini oshirishdagi rolini chuqur tadqiq etish talab etilmoqda. Bunday sharoitda ish bilan bandlik darajasini oshirishda demografik jarayonlarni tartibga solish usullarini amalda joriy etishning ahamiyati tobora ortib boradi.

Jahonda aholining ish bilan bandligini oshirishga demografik jihatlarining ta'siriga oid ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada aholining ijtimoiy-demografik guruhlarini ehtiyojlarini hisobga olgan holda ish bilan bandlikning innovatsion turlarini kengaytirish kabi ilmiy yo'nalishlar muhim ahamiyatga egadir.

Bugungi kunda mamlakatimizda ham barcha iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat resurslarining taqsimlanishi va sifat jihatidan tarkibini takomillashtirish, mehnat salohiyatini oshirish, ish bilan bandlik tarkibining o'zgarishi, inson resurslarining mobilligini oshirish, ish vaqtining davomiyligi va demografiya kabi masalalarga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasida “O'zbekistonda mehnat bozorida haqiqiy holatni respublikamiz mintaqalari kesimida chuqur tahlil qilish asosida aholini ish bilan bandligi darajasini oshirish bo'yicha hududiy va tarmoq dasturlarini ishlab chiqish, yangi ish o'rinlari tashkil etish bo'yicha davlat buyurtmalarini ishlab chiqish va aholining ijtimoiy ehtiyojmand qatlamlari hamda kambag'allikni qisqartirish uchun ish joylari kvotasini belgilash bo'yicha aniq maqsadga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.”[1],- deb ta'kidlaganlar. Bu vazifalarni hal etishda ish bilan bandlik shakllarini takomillashtirish, hamda demografik guruhlarni baholash, mehnat bozorida ish bilan bandlikni tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish kabi yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqotlarni chuqurlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatda demografik ko'rsatkichlar va aholi bandligini baholashda manfaatdorlik indeksi asosida baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday tadqiqotlarni amalga oshirishda, birinchi galda faoliyatning manfaatdorligi jihatidan yondashish, manfaatdorlik koeffitsiyenti va manfaatdorlik indekslarini aniqlash asosida aholi bandligi tahlili uchun yangi tadqiqot usullaridan foydalanish lozim bo'ladi. Aholi bandligini baholashda manfaatdorlik jihatidan yondashish, manfaatdorlik koeffitsiyenti va manfaatdorlik indekslarini aniqlash uning sifat va miqdoriy parametrlarini baholashga va bu orqali aholi bandligi darajasiga tashqi ta'sir oqibatlarini kengroq tahlil qilishga imkon beradi.

Aholi bandligini oshirishda o'z navbatida mehnat salohiyatining tarkibiy qismi bo'lgan ishchi va xodimlarning manfaatlarini hisobga olish muhim o'rin tutadi. Inson manfaatini to'laligicha aniqlashga, uni tashkil etuvchi sifatlarini inson manfaatlarining elementlari sifatida qaralgandagina u moddiy obyekt darajasidagi mohiyatga ega bo'ladi.

Bunday yondashuv, avvalambor inson manfaatlari tushunchasini kengroq talqin qilish, o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashning bugungi kunda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi. Biroq hanuzgacha inson manfaatlari tushunchasining aniq ta'rifi iqtisodiy adabiyotlarda keltirilmaganligi, faqatgina uning ayrim jihatlari yoritilganligi ushbu atamaga qiziqishni yanada o'tirtiradi. Ushbu nuqtai nazardan inson manfaatlari tushunchasiga atroflicha yondashishga, uning turli jihatlari yoritish orqali iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilishga harakat qilamiz. Aytaylik, inson tomonidan sodir etilgan xatolar va e'tiborsizliklar tufayli uning ruhiy holati va sog'lig'i, ruhiy-emotsional holati va boshqa ko'pgina shu kungacha ishlab chiqarish jarayonida e'tiborga olinmay kelayotgan jihatlari orqali iqtisodiy jarayonlarga bevosita ta'sir etuvchi omil yuzaga keladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili:

Inson manfaatlari tushunchasiga beriladigan ta'rif, iqtisodiy nuqtai nazardan qaraganda iqtisodiy jarayonlar ishtirokchilari bo'lgan insonlarning shaxsiy fazilatlarini, xususiyatlarini va shu kabi boshqa jihatlarining tashqi omillar ta'siri ostida namoyon bo'lishi deb qarasaq maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Yetuk iqtisodchi A.Smit o'zining «Xalqlar boyligining tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot» (1776 y.) deb nomlangan kitobida, «insonni faollashtiradigan asosiy rag'bat shaxsiy manfaatdir»[2] – deb ko'rsatadi. Shu o'rinda aytish mumkinki, inson manfaatlari iqtisodiy taraqqiyotning kelajagini belgilovchi muhim bo'g'in bo'lib hisoblanadi.

Fikrimizcha, inson manfaatlari bevosita insonga bog'liq bo'lgan narsa va hodisalarning inson tomonidan bildiriluvchi munosabatlari yig'indisidir. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning markazida inson turadi va undagi barcha voqea va hodisalar bevosita va bilvosita inson ishtirokida sodir bo'ladi. Inson manfaatlari o'zaro bir-biri bilan munosabatda bo'ladigan, turli sinflar, qatlamlar va guruhlar tizimidan iborat bo'lib, ularning faoliyati va o'zaro munosabatlari jamiyatning ilg'or rivojlanishini ta'minlaydi. Inson manfaatlari tushunchasini bir tomonlama o'rganish uning iqtisodiy mazmun va mohiyatining to'la ochib berilishiga to'siq bo'lmoqda. Chunki, kishilik jamiyatidagi barcha narsa va hodisalarning markazida inson turishi va barcha qabul qilingan qonunlar inson manfaatiga qaratilganligi uning iqtisodiy jihatdan mohiyatiga alohida e'tibor qaratishni talab etadi.





Shunday bo'lsada, aynan inson manfaatlari birinchi navbatda insonning tashqi ta'sirga bildirilgan munosabati deb qaralishi lozim deb o'ylaymiz. Bunga izoh sifatida shuni aytish mumkinki, barcha iqtisodiy jarayonlar “manfaat ustunligi” shaklida namoyon bo'ladi va sodir etiladi. Bunday manfaatlarni o'z navbatida iqtisodiy yoki moddiy, ijtimoiy, ma'naviy, huquqiy va boshqa turlarga ajratish mumkin. Biroq bunday ta'rif iqtisodiy qonunlar orasida manfaatni aks ettiruvchi yagona iqtisodiy qonun yo'q ekanligini ko'rsatadi. Qonun – bu zaruriy, muhim, barqaror, hodisalar orasidagi takrorlanadigan munosabatlar[3] ekanligini bilgan holda, iqtisodiy jarayonlarning inson manfaatiga xizmat qilishi jihatidan qaraganda “manfaat ustunligi” iqtisodiy qonuni mavjud bo'lishi lozimligini ko'rsatadi. Bu esa umum iqtisodiy jarayonlarning amal qilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyat taraqqiyoti tarixida mavjud bo'lgan barcha insonlar o'z turmush tarzini ma'lum turdagi manfaatga asoslangan holda tashkil etishgan. Bunday manfaatlarni bizningcha, ta'sir etish ko'lamiga bo'yicha quyidagicha turkumlash mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi:

Inson manfaatlari ko'lamiga ko'ra ya'ni bir yoki bir guruh insonlar manfaatini aks ettiruvchi manfaatlar sifatida qaraydigan bo'lsak ularni shaxsiy, guruh yoki oila, jamiyat va ilohiy manfaat kabi guruhlarga ajratish mumkin.

Shaxsiy ya'ni yagona shaxs manfaati deyilganda insonning iqtisodiy jarayonlar subekti sifatida amalga oshiradigan barcha faoliyatida, bu xoh ishchi yoki xizmatchi, rahbar yoki xodim, xaridor yoki iste'molchi bo'lishidan qat'iy nazar ma'lum miqdorda o'z shaxsiy manfaati yo'lida harakat qilishi nazarda tutiladi. Shaxsiy manfaat o'z navbatida shaxsga taa'luqli bo'lgan mol mulk, moddiy boyliklar, sog'lig'i va ruhiyati bilan bog'liq bo'lgan manfaatlarni nazarda tutadi. Shu o'rinda aytib o'tish kerak-ki, shaxsiy manfaat shaxsiy mulk daxldorligini himoya qilishga qaratilishini inobatga oladigan bo'lsak, mamlakatimiz qonunchiligida “shaxsiy mulk” shakli mulk shakllari tarkibiga kiritilishi lozim. Bu esa insonning mehnat qilish huquqini yanada mustahkamlaydi, shu bilan birga ish haqidan shakllangan mulk daxlsizligini kafolatlash imkoniyatini yaratadi. Chunki insonning mehnat qilish qobiliyati faqatgina o'ziga tegishli bo'lib, qilingan mehnatdan olingan daromad evaziga shakllangan mulk shaxsiy mulk shakli sifatida namoyon bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Guruh yoki oila manfaati – inson tabiatan jamoada yashashi va mehnat qilishi jihatidan o'z oilasi, yaqinlari yoki jamoadoshlarining manfaati yo'lida ish ko'rish ularning manfaati boshqalar manfaatidan ustunligi nuqtai nazardan ish yuritadi.

Bundan tashqari insonning jamiyatdagi doimiy faoliyati jamiyat hamda davlat manfaati nuqtai nazaridan ish yuritish zaruratini keltirib chiqaradi. Manfaat yo'q joyda rivojlanish ham bo'lmaydi va aynan shu manfaat davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tizimini tartibga solishda, ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar olib borishda o'z mohiyatini to'raligicha namoyon etadi. Shunday qilib inson manfaati iqtisodiy jihatdan insonning iqtisodiyotga ta'siri sifatida namoyon bo'ladi. Aynan ana shu ta'sir inson manfaatlari ko'rinishida shakllanadi va iqtisodiyotga ta'sir etuvchi siyosiy, huquqiy, tashkiliy omillar qatorida navbatdagi omil sifatida keltirilishi maqsadga muvofiq. Buni shunda ko'rishimiz mumkinki, barcha iqtisodiy jarayonlar inson uchun xizmat qilsada inson iste'molchi yoki ishlab chiqaruvchi sifatida shaxsiy, guruh yoki jamiyat manfaati yo'lida ish ko'radi. Bu esa ishlab chiqarilgan mahsulotlar sifati oshishiga va pul tushumining ortishi yoki kamayishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Maqsadiga ko'ra inson manfaatlari guruhlashda iqtisodiy yoki moddiy manfaat, ijtimoiy manfaat, huquqiy manfaat, ma'naviy yoki boshqa turdagi manfaat turlariga ajratishimiz mumkin bo'ladi. Bunda inson har bir qiladigan harakati yoki faoliyati maqsadli ravishda ma'lum bir manfaat turini ko'zlaydi. Bu iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy, ma'naviy-madaniy yoki boshqa turdagi manfaatlarni nazarda tutadi.

Yuqoridagi bayon etilganlardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, inson iqtisodiy jarayonlarning subekti sifatida uning ehtiyoji va xohishlarini inobatga olinishi inson manfaatlari ko'rinishida iqtisodiyotdagi o'rnini o'rganishga zarurat keltirib chiqaradi. Inson manfaatlari tushunchasini o'rganish uning iqtisodiyotga ta'sirini prognoz qilishga imkoniyat yaratadi. Bunday ta'sirni inson manfaatlari deb nomlash va shartli ravishda (M)-manfaat ko'rinishida belgilab olish maqsadga muvofiq deb topdik.

Bizga ma'lum-ki, iqtisodiy qonunlar sifatida “chekli naflilikning kamayib borish” qonuniga asosan insonning bir davriylik davomidagi barcha harakatlarining naflligi kamayib boradi, lekin bizningcha umumiy davriylikda inson manfaatlari naflilikning kamayib borishidan farqli o'laroq ortib borish xususiyatiga ega. Bu esa shu bilan izohlanadiki, inson biror bir boylikka ega bo'lganda u ushbu boylikning miqdori bilan chegaralanib qolmaydi, aksincha u ko'proq boylik orttirish harakatiga tushadi. Ya'ni, har bir inson har qanday hodisa va jarayonlarga o'z manfaati ustunligi jihatidan yondashadi, shu bilan birga insonning manfaatiga mos bo'lmagan hodisa va jarayonlar tugatiladi yoki yo'qlikka yuz tutadi.

Demak, biz ushbu holatdan kelib chiqqan holda agarda inson birgina omil ya'ni moddiy manfaat bilan chegaralanganda uning ushbu moddiy boylikdan oladigan manfaati oshib boradi va undan qoniqish miqdori kamayib boradi degan nazariy xulosaga kelishimiz mumkin. Bu holatda inson moddiy boylikning ortishi bilan undan oladigan qoniqish miqdori kamayib borishini nazariy jihatdan asoslash mumkin. Bundan xulosa qilib aytish





► **Mehnat bozori munosabatlari**

mumkin-ki, barcha insonlar moddiy boylikdan oladigan umumiy manfaati ortib borishi va shu bilan birga undan oladigan qoniqish miqdori ya’ni chekli qoniqish miqdori ham ortib boradi degan xulosaga kelishimiz mumkin va bundan xulosa sifatida umumiy manfaatning ortishib borishi iqtisodiy qonunining yuzaga kelishi zaruratini ko’rsatadi. Bunga misol tariqasida har bir inson qilgan mehnatidan oladigan manfaat keyingi safar bajaradigan mehnatidan oladigan manfaatdan kichik bo’ladi. Demak bunda:

$$M_1 = CHN_{1,1} + CHN_{1,2} + CHN_{1,3} + \dots + CHN_{1,n}; \quad M_n = CHN_{n,1} + CHN_{n,2} + CHN_{n,3} + \dots + CHN_{n,n};$$

$$M_1 \leq M_2;$$

$$M_n = M_{n-1} + \Delta M_n; \quad CHN_1 = \frac{\Delta ON_1}{\Delta Q_1}; \quad CHN_1 \geq CHN_2;$$

Bu yerda: M - manfaat miqdori,
CHN - chekli nafillik miqdori.

Yuqorida aytilgani kabi “chekli nafillikning kamayib borish” qonuniga asosan insonning bir davriylik davomidagi barcha harakatlarining nafilligi kamayib boradi.

$$\Delta M_1 = M_1 - M_0; \quad \Delta M_1 = M_1;$$

$$\Delta M_2 = M_2 - M_1; \quad \Delta M_2 \leq M_2;$$

$$\Delta M_n = M_n - M_{n-1}; \quad \Delta M_n \leq M_n;$$

Bu yerda: ΔM – chekli manfaat miqdori.

Tadqiqotlar natijasida shuni aytish mumkin-ki, bizningcha umumiy davriylikda inson manfaatlari chekli nafillikning kamayib borishidan farqli ravishda chekli manfaat miqdori ortib borish xususiyatiga ega.

$$\Delta ON_1 = ON_1 - ON_0; \quad \Delta ON_n = ON_n - ON_{n-1};$$

$$UM_n = M_1 + M_2 + M_3 + \dots + M_n; \quad UM_n = \sum_{n=0}^n M_n;$$

Bu yerda: ON – oraliq manfaat miqdori,
UM - umumiy manfaat.

Yuqorida keltirilgan formuladan shuni ko’rishimiz mumkin-ki, oraliq manfaat miqdori insonning bir davriylik davomidagi barcha tashkil etuvchi elementlarini ifodalaydi.

Qurilish sanoati korxonalari iqtisodiy faoliyatining manfaatdorlik indeksini quyida keltirilgan formula ko’rinishida izohlash mumkin:

$$Min = K_j/K_o$$

Bu yerda: Min – manfaatdorlik indeksi;

K_j – joriy yildagi ko’rsatkich;

K_o – oldingi yildagi ko’rsatkich.

Inson manfaatlarining iqtisodiyotga ta’sirini quyida keltirilgan formula ko’rinishida izohlash mumkin:

$$IM_n = (M_{1,2}/M_{1,1} + M_{2,2}/M_{2,1} \dots + M_{n,2}/M_{n,1})/n$$

Bu yerda: IM – manfaatdorlik koeffitsiyenti;

n - manfaatlar soni.

Ushbu koeffitsiyentlar $0 \leq IM_n < 1$ bo’lganda manfaat past darajada yoki mavjud emas, $IM_n = 1$ ga teng bo’lganda meyoriy manfaat mavjudligi, $1 < IM_n$ dan yuqori bo’lganda manfaatning ortib borishi qonuni amal qilishi bilan izohlash mumkin. Keltirilgan formuladan shuni ko’rish mumkinki insonning iqtisodiyotdagi o’rnini, ya’ni uning iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini aniqlash, kelajakda rivojlanish yo’nalishlarini belgilab olish uchun muhim hisoblanadi.

Aynan inson manfaatlari ko’rsatkichini o’rganish asosida boshlang’ich mahsulot ishlab chiqarish miqdorini aniqlash imkonini beradi. Aytaylik, insonning mahsulot iste’molchisi sifatida unga bo’lgan talablar va bunday talablarni mahsulotning sifatiga, narxiga va tashqi ko’rinishiga bo’lgan talablar sifatida keltirish mumkin. Bunda, aynan mana shu ko’rsatkichlar mahsulotning qancha miqdorda va qanday narxda sotilganda undan yuqori daromad olish imkonini belgilaydi. Demak, inson manfaatlari ko’rsatkichini aniqlash iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalari uchun muhim bo’lib ushbu tarmoq va sohalarning rivojlanish tendensiyasini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda “manfaat ustunligi”ni ta’minlaydigan inson manfaatlari yagona bir tizim yoki majmua sifatida qaralmaydi. Lekin butun insoniyat uchun inson manfaatlarini hisobga olish va uni baholashning ahamiyati kundankunga ortib bormoqda. Buni turli xil usul va yondashuvlardan foydalangan holda amalga oshirishni talab etadi. Manfaatlarni tashkil etuvchi va belgilovchi muhim sifatlarning mavjudligi insonning o’z manfaatlari doirasida fikr yuritishi, qaror qabul qilishi va harakat qilishini ko’rishimiz mumkin (1-rasm).




Ushbu sifatlarning u yoki bu turi insonda namoyon bo'lishi qay darajada ekanligi uning manfaatini belgilab beradi. Natijada, inson ta'siri mavjud bo'lgan barcha soha va tarmoqlar inson manfaatlarini natijasi sifatida rivojlanadi. Demak, nafaqat iqtisodiy tizim balki dunyodagi barcha munosabatlar insonning u yoki bu turdagi manfaatlarini ifodalay ekan, biz iqtisodiy rivojlanish darajasini va xususiyatlarini aniqlash va zaruriy xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Shu sababli inson manfaatlarini kengroq tushunish va uni baholash uchun ushbu manfaatlar ta'sir etuvchi va ularni belgilab beruvchi sifatlarning tarkibiy tuzilmasi ishlab chiqildi.

Demak o'rganishlarning ko'rsatishicha, inson manfaatlarini aniqlash, uni 4 guruhga bo'lib o'rganishni talab etadi.

Bular, iqtisodiy yoki moddiy manfaatni belgilovchi sifatlari, ijtimoiy manfaatni belgilovchi sifatlari, ilmiy, siyosiy-huquqiy manfaatlarni belgilovchi sifatlari hamda ma'naviy va ehtimoliy manfaatlarni belgilovchi sifatlardir. Ushbu rasmda insonning fikr yuritishi, qaror qabul qilishi va barcha harakatlarni amalga oshirishda ishtirok etadigan eng zarur va muhim insoniy sifatlari tanlab olingan. Ushbu tuzilma insoniy sifatlarni majmuasidan tashkil topib, ularni inson manfaatini tashkil etuvchi elementlar, deb atashni maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Mazkur sifatlarni insonlar tabiatida barchasi yaxlit majmua ko'rinishida qaror topadi, insonning yashashi va to'laqonli ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat yuritishini, shu bilan birga xulq-atvorining shakllanishini ta'minlab beradi. Ushbu sifatlarni mehnat jamoasining barcha a'zolariga tatbiq etilishi ushbu jamoani yagona maqsad yo'lida birlashtirishga, madaniy-axloqiy va ma'naviy muhitni yaxshilashga xizmat qiladi.

Mehnat resurslarining samarali bandligi birinchi galda mehnat qilayotganlarning kasbiy mahorati va ma'lumotlilik darajasiga, malakasiga, ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy jihatlarga, ishchi va xodimlarning mehnati hamda turmush sharoitiga, ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlarini qondira olishga bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Inson manfaatining insoniylik sifatlari majmuasining "Insoniy, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar" qismidagi insoniylik sifatlari har kimda har xil shakllanadi.

Biz tomondan inson manfaatlarini aks ettiruvchi sifatlarni 4 ta asosiy guruhga va 46 ta sifatlarga ajratdik. Ushbu sifatlarni tanlashda hayot kechirish va mehnat faoliyati jarayonida zarur bo'ladigan birlamchi eng muhim sifatlarni tanlab olishga harakat qildik. O'z navbatida ushbu sifatlarning miqdorini oshirish ham turli murakkabliklarning kelib chiqishiga olib keladi.





► **Mehnat bozori munosabatlari**

Tadbirkorlik	Insonparvarlik
Ishbilarmonlik va b.	Viidonlilik
	Odoblilik
	Saxivlik
	Irodalilik
	Adolatparvarlik va b.

1-rasm. Inson manfaatlarini belgilovchi sifatlar.

Yuqorida keltirilgan rasm orqali insoniy sifatlarning ahamiyati va mohiyatini ochib berishga harakat qildik. Rasmda keltirilgan sifatlar insonlarni har tomonlama hamohang rivojlanishi uchun nimalarga e’tibor qaratilishi zarurligini ko’rsatib turadi. Gap sifatlarni ko’p yoki kam jam etilganida emas, optimal, zaruriy tomonlarini puxta hisobga olib, mujassamlanganligi bilan ahamiyatga ega bo’ladi.

Majmuadagi sifatlarini mehnat jamoasiga keng tatbiq etilishi esa, jamoani bir maqsad yo’lida jipslashishga, kuchlarni birlashtirishga, axloqiy-ma’naviy muhitni sog’lomlashtirishga xizmat qiladi. Korxon va tashkilotni muvaffaqiyatli ishlashiga, unda mehnat qilayotganlarning birgalikdagi faoliyati yuqori darajada samarali bo’lishiga, malakasiga, kasbiy tayyorgarligi va ma’lumot darajasiga, ma’naviy, ma’rifiy, axloqiy jihatlarga, ishchilarning mehnat va turmush sharoitiga, moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga bog’liq ekanligini ko’rsatib turadi. Ayni davrda ham, avval ham inson resurslaridan unumli foydalanish uchun turli tadbirlar o’tkazilib, ulardan foydalanish ko’rsatkichini orttirishga harakat qilib kelinadi. Bunda asosan muhim deb hisoblanilgan sanoqli sifatlardangina foydalaniladi. Boshqalari esa, e’tibor-nazardan chetda qolib ketavergan. Vaholanki, yuqorida keltirilgan rasmdagi sifatlar ro’yxatiga e’tiboringizni qaratadigan bo’lsak, bunda biror sifatni boshqasidan keskin ortiq yoki kam ahamiyatli, deyishga asos yo’q. Insoniy sifatlarning ko’p yoki kam ahamiyatligida emas, balki, ularni inson faoliyatiga qanday ta’sir etishi, turtki bera olishligidadir.

Xodimlarni o’z imkoniyati va salohiyatidan foydalanish darajasining past bo’lishi ko’p jihatdan ularning mehnatga ishtiyoqi yoki layoqatining yo’qligida emas, balki faoliyatini to’g’ri tashkil eta olmaganligi, uni yaxshilash uchun qaysi sifatlardan foydalanish zarurligi, yoki qaysi sifatlarini nazardan chetda qoldirib, imkoniyatlarini boy berayotganligini bilmay qolishligidadir. Shuning uchun ishchi va xodimlar mehnat jamoalarida jadval-majmua asosida sifatlar samaradorligini doimiy ravishda oshirib borish borasida chora-tadbirlar o’tkazib borish zarur.

Tahlil va natijalar:

Quyida keltirilgan 1-jadval ma’lumotlaridan shuni aytish mumkinki, o’rganilayotgan 2010-2022-yillarda mamlakatning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko’rsatkichlari tahlil qilingan (1-jadval). Unga ko’ra o’rganilayotgan davrda yalpi ichki mahsulot o’sishi sur’ati o’rtacha manfaatdorlik koeffitsiyenti 1,22 ga teng bo’lganligini ko’rish mumkin. O’z navbatida ushbu davrda mamlakatda doimiy aholi manfaatdorlik o’rtacha koeffitsiyenti 1,02 ga teng bo’lganligini kuzatish mumkin. Qolaversa o’rganilayotgan davrda iqtisodiy faol aholi manfaatdorlik o’rtacha koeffitsiyenti ham 1,02 ga, mamlakat mehnat resurslari manfaatdorlik o’rtacha koeffitsiyenti 1,01 ga va iqtisodiyotda band bo’lganlarning manfaatdorlik o’rtacha koeffitsiyenti ham 1,01 ga teng bo’lganligini ko’rish mumkin.

Bundan tashqari o’rganilayotgan davrda aholining mulkchilik shakllari bo’yicha taqsimlanishida, jumladan davlat sektorida manfaatdorlikning o’rtacha koeffitsiyenti barqaror ko’rsatkichga ega bo’lib kelgan. Tahlil qilinayotgan davrda o’rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi manfaatdorlik o’rtacha koeffitsiyenti 1,2 ga teng bo’lganligi ham mamlakatda aholining nominal daromadlari miqdori mamlakat YAIM miqdoriga mutanosib ravishda oshib borganligidan dalolat beradi. Shuni aytish kerakki, mazkur ko’rsatkich doimiy aholi soniga nisbatan yuqori o’sish ko’rsatkichiga ega ekanligini ko’rish mumkin bo’ladi.

1-jadval

O’zbekiston Respublikasining asosiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko’rsatkichlari [4]

Ko’rsat-kichlar	2010y.	2012y.	2014y.	2016y.	2018y.	2020y.	2022y.	O’rtacha o’zgarish koeffit-siyenti
YAIM (mlrd. so’m)	78936,6	127590,2	186829,5	255421,9	426641,0	605514,9	888 341,7	1,29





Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi (mlrd.soʻm)	21251,3	36 954,7	53 613,2	74 779,0	113 327,4	150 493,7	208 452,9	1,28
Sanoat (mlrd.soʻm)	12 997,3	20 462,7	32 136,7	45 397,9	94 266,7	150 275,1	220 704,3	1,32
Qurilish (mlrd.soʻm)	3760,5	5 601,4	9 098,3	13 148,0	21 958,5	37 334,8	55 522,7	1,29
Xizmatlar	31 463,8	50 254,7	73 600,9	99 665,5	151 512,6	223 049,8	343 374,3	1,29
Doimiy aholi soni (ming kishi)	28001,4	29555,4	30492,8	31575,3	32656,7	33905,2	35271,3	1,02
Iqtisodiy faol aholi (ming kishi)	12286,6	12850,1	13505,4	14022,4	14641,7	14797,4	15038,9	1,02
Mehnat resurslari (ming kishi)	16726,0	17564,3	18048,0	18488,9	18829,6	19158,2	19517,5	1,01
Iqtisodiyotda bandlar soni (ming kishi)	11628,4	12223,8	12818,4	13298,4	13273,1	13236,4	13706,2	1,01
Shu jumladan:								
Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi	3118,1	3251,7	3528,9	3646,7	3537,2	3499,2	3438,7	1,01
Sanoat	1605,7	1669,5	1736,5	1802,4	1802,9	1809,5	1810,6	1,01
Qurilish	1033,7	1105,7	1183,3	1263,6	1205,5	1305,6	1314,3	1,02
Savdo	1235,6	1305,6	1378,3	1452,4	1401,8	1405,4	1525,2	1,02
Tashish va saqlash	509,9	549,1	592,1	638,2	645,2	610,5	633,1	1,02
Taʼlim	1102,0	1103,3	1104,7	1105,6	1111,7	1158,2	1268,7	1,01
Sogʻliqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	596,2	598,4	600,8	601,6	604,0	669,5	671,3	1,01
Boshqa turlari	2427,2	2640,5	2693,8	2787,9	2964,8	2778,5	3044,3	1,02
Oʻrtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (soʻm)	-	-	-	1 064 214,6	1 542 598,3	2 227 141,2	320 4301,4	1,20

Navbatdagi keltirilgan 2-jadval maʼlumotlari tahlili asosida YAIM miqdorining doimiy aholi soni, iqtisodiy faol aholi, mehnat resurslari va iqtisodiyotdagi band aholi sonining oʻsishiga korrelyatsion bogʻliqligini koʻrib chiqamiz. Mazkur jadval maʼlumotlari tahlilidan koʻrish mumkinki, mamlakat YAIM miqdori va doimiy aholi sonining oʻzgarishi oʻrtasida zich bogʻliqlik mavjud boʻlib, oʻz-oʻzidan xulosa qilib aytganda mamlakat YAIM miqdori ortishi doimiy aholi sonining ortishiga olib keladi. Shu bilan birga mamlakat doimiy aholisi va iqtisodiy faol aholi, mehnat resurslari hamda iqtisodiyotda band boʻlganlar oʻrtasida ham zich bogʻliqlik mavjud ekanligini koʻrishimiz mumkin boʻladi. Oʻz navbatida bu shuni anglatadiki, mamlakat doimiy aholi sonining ortishi iqtisodiy faol aholi, mehnat resurslari hamda iqtisodiyotda band boʻlganlar sonining ortib borishi bilan izohlanadi.





O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti tarmoqlari va ularda aholi bandligi bilan bog‘liq omillar tahlili [5]

	YAIM	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Doimiy aholi soni	Mehnat resurslari	Iqtisodiyotda bandlar
YAIM	1,00	1,00	0,99	1,00	1,00	0,92	0,79	0,79
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	1,00	1,00	0,98	0,99	1,00	0,94	0,82	0,82
Sanoat	0,99	0,98	1,00	1,00	0,99	0,88	0,73	0,72
Qurilish	1,00	0,99	1,00	1,00	1,00	0,89	0,75	0,74
Xizmatlar	1,00	1,00	0,99	1,00	1,00	0,92	0,79	0,79
Doimiy aholi soni	0,92	0,94	0,88	0,89	0,92	1,00	0,96	0,96
Mehnat resurslari	0,79	0,82	0,73	0,75	0,79	0,96	1,00	1,00
Iqtisodiyotda bandlar	0,79	0,82	0,72	0,74	0,79	0,96	1,00	1,00

Quyida keltirilgan 3-jadvalda esa O‘zbekiston Respublikasida aholi va uning bandligiga bog‘liq omillarning manfaatdorlik indeksi bo‘yicha tahlili amalga oshirilgan bo‘lib, mazkur jadvalda ham mamlakat YAIM miqdorining doimiy aholi soni, iqtisodiy faol aholi, mehnat resurslari va iqtisodiyotdagi band bo‘lganlarning manfaatdorlik indeksi bo‘yicha korrelyatsion tahlili amalga oshirilgan. Ushbu jadvalning e‘tiborli jihati shundaki, yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek mamlakat YAIM miqdori va doimiy aholi sonining o‘zgarishi o‘rtasida zich bog‘liqlik mavjud ekanligini ko‘rgan bo‘lsak, uni manfaatdorlik indeksi asosida tahlil qilinganda esa umuman korrelyatsion bog‘liqlik mavjud emas ekanligini ko‘rish mumkin bo‘ladi. Shu bilan birga manfaatdorlik indeksi asosida tahlil qilinganda mamlakat YAIM miqdori ortishiga faqatgina mehnat resurslari yuqori korrelyatsion bog‘liqlikka ega ekanligini ko‘rishimiz mumkin va bu aynan mehnat resurslari mamlakat YAIM miqdoring ortishida muhim omil ekanligini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari jadval tahlilidan doimiy aholi va iqtisodiy faol aholi, mehnat resurslari hamda iqtisodiyotda band bo‘lganlar o‘rtasida ham juda past korrelyatsion bog‘liqlik mavjudligini yoki bo‘lmasa umuman bog‘liqlik mavjud emas ekanligini ko‘rish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti tarmoqlari va ularda aholi bandligi bilan bog‘liq omillarning manfaatdorlik indeksi bo‘yicha tahlili [6]

	YAIM	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Doimiy aholi soni	Mehnat resurslari	Iqtisodiyotda bandlar
YAIM	1,00	0,79	0,42	0,17	0,95	-0,20	0,68	0,21
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	0,79	1,00	-0,12	-0,24	0,67	0,07	0,56	0,15
Sanoat	0,42	-0,12	1,00	0,44	0,43	-0,42	0,23	0,06
Qurilish	0,17	-0,24	0,44	1,00	0,31	-0,34	0,10	-0,01
Xizmatlar	0,95	0,67	0,43	0,31	1,00	-0,24	0,67	0,24
Doimiy aholi soni	-0,20	0,07	-0,42	-0,34	-0,24	1,00	-0,08	-0,18
Mehnat resurslari	0,68	0,56	0,23	0,10	0,67	-0,08	1,00	0,52
Iqtisodiyotda bandlar	0,21	0,15	0,06	-0,01	0,24	-0,18	0,52	1,00





Buni o'z navbatida quyidagicha izohlash mumkin, ya'ni aholi sonining ortishi iqtisodiy faol aholi, mehnat resurslari hamda iqtisodiyotda band bo'lganlar sonining ortishiga olib kelishi kerak emas albatta, chunki aholining joriy davrdagi ko'payish ko'rsatkichi bir qancha davrdan keyingina mamlakat mehnat resurslari, iqtisodiy faol aholi qismini shakllantiradi va o'z navbatida iqtisodiyotda band bo'lganlar sonining ortishiga olib keladi.

Xulosa va takliflar:

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, mamlakatdagi demografik masalalar va aholi bandligini aynan manfaatdorlik indeksi asosida baholash olinadigan natijalarning aniqligiga va chiqariladigan xulosalarning to'g'riligiga olib keladi. Chunki aynan biz tomondan taklif etilayotgan baholash me'zonlari asosida aholi bandligini yuqori aniqlikda prognoz qilish va mavjud kamchiliklarini aniqlash imkonini beradi, shu bilan birga iqtisodiy manfaatdorlik indekslarini qo'llash orqali aholining samarali bandligini tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyovning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.2018 yil 28 dekabr. LEX.UZ
- 2.Shodmonov SH. va boshqalar. Iqtisodiyot nazariyasi – T.: Moliya, 2002. – B. 19.
- 3.Novikov D.A., Zakoni, zakonomernosti i prinsipi upravleniY. <http://www.mtas.ru/>
- 4.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.
- 5.Mualliflar tadqiqotlari asosida tuzilgan.
- 6.Mualliflar tadqiqotlari asosida tuzilgan.





MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

<https://laboreconomics.uz>

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI 2023-yil Maxsus son

ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

laboreconomics.uz

Muharrirlar:

Yaxshiyev H.T.

Matxo'jayev A.O.

Musahhih:

Kamilova D.J.

Tehnik muharrir:

Mirzayev J.O'.

Litsenziya AI № 2537 08.02.2022 y. Bosishga ruxsat etildi 19.10.2023.
Qog'oz bichimi 60x84 1/8. Shartli bosma tabog'i 31,6. Raqamli bosma.
Adadi 50 nusxa. №16/10-2023 - sonli buyurtma.

“Zarafshon Foto” MCHJning matbaa bo'limida chop etildi.
100164, Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek tumani, Shahriobod ko'chasi, 3-uy.

CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC TRENDS" 19-20 OCTOBER

1st DIRECTION: TRENDS AND PROSPECTIVE DIRECTIONS OF GLOBAL ECONOMIC DEVELOPMENT.

CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC

TRENDS"

19-20 OCTOBER 2023

TASHKENT STATE

UNIVERSITY OF ECONOMICS,

TASHKENT, UZBEKISTAN

FORUM "NEW2AN, ICFENDS and ICDSIS"

CONFERENCE

DEVELOPMENT STRATEGY:

GLOBAL ECONOMIC TRENDS

"IFRS" FORUM

"IFRS" HOMLI KONFERENCIYA

CONFERENCE "GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC

TRENDS"

TASHKENT STATE

UNIVERSITY OF ECONOMICS

ЎНАЛИШ: ГЛОБАЛ ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА ИСТИҚБОЛЛИ ЎНАЛИШЛАРИ. "Глобал ва миллий иқтисодиёт трендлари" номли конференция

PARALLEL CONFERENCES

"NEW2AN AND ICDSIS"

AND ICFENDS"



- Conditions for improvement
- Corporate Accounting
- Institutional problems
- Training personnel for the future
- Business environment
- Digital technologies

CONFERENCE

"GLOBAL AND NATIONAL ECONOMIC TRENDS" 19-20 OCTOBER



100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy.

+998 99 881-86-98

ilmiymaktab@gmail.com

www.laboreconomics.uz

FORUM

- Gender Equality
- Industry 4.0
- Sustainable Agricultural Development

- Digital
- Green
- Environ
- Alter
- Artifi